

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining  
faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizomga  
3b-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasidagi omonatlarni kafolatlash tizimi to'g'risida  
AXBOROT**

1.	_____ ga <i>(bank nomi)</i> <b>joylashtirilgan omonatlar kafolatlanishi</b>	Bankdagi omonatlar Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi
2.	<b>Omonatlarni kafolatlash asoslari</b>	O'zbekiston Respublikasining «Banklardagi omonatlarni himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni
3.	<b>Kafolatlash hodisasi</b>	Bankning tugatilishi (yopilishi)
4.	<b>Kafolatlanadigan omonatlar turi</b>	Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar, shu jumladan bank kartalaridagi mablag'lar, muddatli va jamg'arma omonatlar, shuningdek mazkur omonatlar bo'yicha hisoblangan foizlar
5.	<b>Kompensatsiya miqdori</b>	Bank tugatilganda har bir omonatchiga, omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda, jami to'lanadigan kompensatsiya miqdori 200 000 000 so'mdan oshmaydi
6.	<b>Bir bankda omonatchining bir nechta omonatlari mavjud bo'lgan taqdirda to'lanadigan kompensatsiya miqdori</b>	Omonatning miqdori va valyutasidan qat'i nazar omonatchining ushbu bankdagi va uning filiallaridagi barcha omonatlari hisoblangan foizlar bilan jamlanadi va ular bo'yicha to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori 200 000 000 so'mdan oshmaydi
7.	<b>Bir nechta bank tugatilgan holda kompensatsiya miqdori</b>	Bir nechta bank tugatilgan taqdirda, mazkur banklarda omonatlari mavjud bo'lgan omonatchi har bir bank bo'yicha alohida tartibda 200 000 000 so'mdan oshmagan miqdorda kompensatsiya olish huquqiga ega
8.	<b>Kompensatsiya to'lash muddati</b>	Bankni tugatish (yopish) to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran 20 ish kuni mobaynida: 2026 yil 1 yanvardan boshlab — 15 ish kuni; 2027 yil 1 yanvardan boshlab — 7 ish kuni.
9.	<b>Kompensatsiya to'lanadigan valyuta</b>	Chet el valyutasida qo'yilgan omonatlar bo'yicha kompensatsiya bank tugatilgan (yopilgan) sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo'yicha milliy valyutada (so'mda) to'lanadi
10.	<b>Bog'lanish uchun ma'lumotlar</b>	<i>Toshkent sh., Qoratosh ko'chasi, 1 uy (O'zbekiston Banklari Assotsiatsiya binosi) 100027, Ishonch telefoni: +99855-550-05-00 Email: <a href="mailto:info@uzoka.uz">info@uzoka.uz</a> Veb sayt: <a href="http://fgd.uz">fgd.uz</a></i>

**Omonatchi xabardor qilindi:**

**Imzo:** Tasdiqlayman \_\_\_\_\_

**Sana:** \_\_\_\_ . \_\_\_\_ . \_\_\_\_ yil.